

лифицированных кадров. Вместе с изменением в законодательстве, которое происходит в настоящее время в Республике Узбекистан (принимается новая редакция Закона «О бухгалтерском учёте»), подготовка кадров, которые будут

осуществлять на каждом этапе данный переход на международные стандарты финансовой отчётности должно стать приоритетным направлением.

Источники и список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по реализации Инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2020-2022 годы» // Национальная база данных законодательства 9.01.2020г., № ПП-4563
2. Постановления Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности». // Национальная база данных законодательства 24.02.2020г., № ПП-4611
3. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по привлечению иностранных инвесторов в акционерные общества». // Национальная база данных законодательства 21.12.2015г., № ПП-2454
4. Райимбердиева О.Р., Бегимкулов Ж.Ж. Реформирование бухгалтерского учета в Узбекистане. // Тенденции Экономического развития 21 века, 2020 – С.141
5. Квиринг М., Икрамов А. (Rödl & Partner) Вместе к успеху. // Руководство по бухгалтерскому учету и отчетности Республики Узбекистан. – 2021 – С.8
6. Даргачева Т., Шайданов Т. вопросу перехода на МСФО в Республике Узбекистан. // Общество и инновации, 2020. - №01. – С.2
7. Дмитриева И.М. Перспективы внедрения международных стандартов финансовой отчетности в национальные учетные системы. // Мир новой экономики, 2016. - №10(3). – С.62-65.
8. Дусмуратов Р.Д. Реформа бухгалтерского учета в Узбекистане: опыт, проблемы и перспективы / Р.Д. Дусмуратов, Б.Ю. Менгликулов. // Экономика и бизнес: теория и практика, 2016. – №10. – С. 35-40.
9. Rödl & Partner Вместе к успеху Руководство по бухгалтерскому учету и отчетности Республики Узбекистан



XARAJATLARNI TAHLIL QILISHNING YANGI USULLARINI QO'LLASH - ENERGETIKA KORXONASINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITASI

Urmanbekova Iroda Farxodovna –
Toshkent davlat istisodiyot universiteti,
Sirtqi fakultet, Moliya va buxgalteriya
hisobi kafedrasi katta o'qituvchisi

 https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a29

Аннотация. Maqolada energiya ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni boshqarish tizimida tahlil alohida o'rinni egallashi, hamda ularni tahlil qilishda turli usullarini qo'llash energetika korxonalarining energiya samaradorligini oshirish vositasi sifatida korxonada misolida tahlil qilingan va baho berilgan.

Таянч со'злар: energetika, xarajat moddalari, ishlab chiqarish samaradorligi xarajat, ish haqi, tannarx, solishtirma og'irlik, ABC usuli.

ПРИМЕНЕНИЕ НОВЫХ МЕТОДОВ АНАЛИЗА ЗАТРАТ – СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО ПРЕДПРИЯТИЯ

Urmanbekova Iroda Farxodovna -
Tashkentский государственный экономический университет,
старший преподаватель заочного факультета,
кафедра «Финансы и бухгалтерский учет»

Аннотация. В статье анализ занимает особое место в системе управления затратами хозяйствующих субъектов, производящих энергию, а использование различных методов при их анализе как средства повышения энергоэффективности энергетических предприятий анализируется и оценивается на примере предприятия.

Ключевые слова: энергия, статьи затрат, стоимость эффективности производства, заработная плата, себестоимость, относительный вес, метод ABC.

APPLY NEW METHODS OF COST ANALYSIS-AS A MEANS OF INCREASING THE ENERGY EFFICIENCY OF AN ENERGY ENTERPRISE

Urmanbekova Iroda Farxodovna
Tashkent State University of Economics, External Faculty,
Department of Finance and Accounting senior teacher

Abstract: In the article, analysis occupies a special place in the cost management system of energy-producing economic entities, and the use of various methods in their analysis as a means of improving the energy efficiency of energy enterprises is analyzed and evaluated using the example of an enterprise.

Key words: energy, cost items, cost of production efficiency, wages, prime cost, relative weight, ABC method.

Kirish. Energetika sohasi O'zbekiston Respublikasining hukumati uchun modernizatsiya qilinishi kerak bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Energetika sektorini transformatsiya qilishning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: energetika davlat korxonalarini faoliyatining yuqori ekspluatatsion va moliyaviy ko'rsatkichlarini ta'minlash, infratuzilma muammolarini hal qilish, sektorni qayta tuzish va raqobatbardosh bozorga o'tish, toza energiyaga o'tishda energiya qiymatini hosil qiluvchi zanjirlarni karbonsizlantirish, tiklanadigan energiya manbalaridan (TEM) foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga ko'maklashish, shuningdek, xususiy sektorni jalb qilish va sohani institutsional va bozor tuzilmasini takomillashtirish [1].

O'zbekistonning energetika sohasida islohot bosqichlari davom etmoqda va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va kengaytirish ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad sanoatni bozor munosabatlariga o'tkazish, so'nggi o'n yilliklarda yetarlicha e'tibor berilmagan infratuzilmani yangilash, respublikamizda iste'molchilarning energiya resurslariga o'sib borayotgan talabini ta'minlashdan iborat. Mamlakat rahbariyati Energetika vazirligi oldiga 2030-yilgacha elektr energiyasini ishlab chiqarishni ikki baravar oshirish vazifasini qo'ydi. Mutaxassislarining fikricha, 10-yildan kam vaqt ichida O'zbekiston aholisi va iqtisodiyot tarmoqlaridan elektr energiyasiga bo'lgan talab ikki baravar ko'payadi. Ya'ni, 2030-yilga qadar 120,1 milliard kilovatt soat elektr energiyasini ishlab chiqarishga erishish.

Buni elektr energiyasi iste'molining yillik o'sish ko'rsatkichlari ham tasdiqlaydi. Ushbu o'sish bugungi kunda elektr energiyasi iste'molining eng yuqori paytida, asosan havo haroratining keskin iqlim o'zgarishi kunlariga to'g'ri keladigan qisqa vaqt ichida elektr energiyasini o'chirish holatlari mavjudligi uchun juda katta mas'uldir. Tadbirkorlik subyektlarining tobora ortib borayotgan ehtiyojlari, aholi tomonidan shu kunlarda konditsionerlar, sovutgichlarni o'z ichiga olgan maishiy elektr jihozlarning ko'pligi tizimga, shu jumladan past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari va transformatorga yuklamaning keskin oshishiga, o'z navbatida ularning ishlashida nosozliklarga olib keladi. Bunday nosozliklarni, hatto iste'molning eng yuqori davrida ham faqat so'nggi 3-yil ichida modernizatsiya va rekonstruksiya qilish orqali jadal ishlar olib borilgan tizim holati, shuningdek quvvatlarning ortishi tufayli oldini olish mumkin. (ishlab chiqarish).

Vazirlar mahkamasi tomonidan "2020 – 2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiya bilan ta'minlash konsepsiyasi" qabul qilindi Hujjat xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan [2].

Unga ko'ra, 2030-yilgacha elektr energiya ishlab chiqarishni 5900 MVt dan 29200 MVt gacha ko'paytirish, tabiiy gaz sarfini qisqartirish hamda elektr energiyani uzatishda yo'qotishlarni sezilarli darajada kamaytirish rejalashtirilgan.

Hujjatning strategik maqsadi – O'zbekiston aholisi va iqtisodiyotini raqobatbardosh narxlarda elektr energiyasi bilan ta'minlash, shuningdek, eng yaxshi global amaliyot va global elektrotexnika sanoatining hozirgi tendensiyalarini qamrab olgan muvozanatli energetika sektorini rivojlantirishdan iborat [3].

Konsepsiyada quyidagi yo'nalishlar ustuvor sifatida belgilangan:

- mavjud elektrstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha energiya samarador texnologiyalardan foydalangan holda yangi elektr stansiyalarini qurish;

- elektr energiyasi hisobini yuritish tizimini takomillashtirish;

- qayta tiklanadigan, ayniqsa, quyosh energiyasi manbalarini rivojlantirish; tarif siyosatini takomillashtirish va ulgurji bozorga chiqishni ta'minlash bo'yicha huquqiy islohotlarni amalga oshirish.

Shuningdek, mazkur strategiyada qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishda hozirgi paytda elektr energiyasi taqchil bo'lgan hududlarni energiya ta'minotini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun, ushbu sohada davlat-xususiy sherikchiligini keng qo'llash choralari strategiyada belgilanganligi.

Bu yoqilg'i-energetika kompleksining O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish uchun sharoit yaratishni ta'minlaydigan rag'batlantiruvchi infratuzilma roliga o'tishi bilan bog'liq. Strategiya energetika kompaniyalarini boshqarishda ularning energiya samaradorligini oshirish imkonini beradigan barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish zarurligiga ishora qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sohaga doir iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish bo'lmagan xarajatlardan hamda tannarx tushunchalari qo'llanilgan. Xarajatlarni boshqarish muammolari bilan iqtisodiyot fanining mumtoz olimlari A.Smit, D.Rikardo, shuningdek xarajatlar hisobi va sanoatda xo'jalik faoliyati tahlili masalalari bilan A.F.Aksyonenko, M.I.Bakanov, A.N.Kashayev, A.D.Sheremet, K.Druri, D.Vilyamson, CH.T.Xongren, Dj.Foster, R.Entoni, Dj.Ris va boshqalarlar shug'ullanishgan.

Bu borada mamlakatimiz olimlaridan A.Karimov, B.Xasanov, M.Pardayev, T.Shagiyasov, B.Isroilov, A.Ibragimov, M.Raximov, Z.Sagdillaeva, I.Choriev, N.Kalandarovalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida xarajatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Bugungi kunda sanoat korxonalarida xarajatlarni hisobga olishning amaldagi tizimi sarflangan xarajatlarni to'liq va ishonchli aks ettirish, turli maqsadlarda jalb etilgan mablag'larni aniq maqsadga yo'naltirish, ishlab chiqarishni tashkil etishda mablaflar taqchilligini bartaraf etish hamda mahsulot tannarxini aniq hisob-kitobini yuritishni tahminlash imkonini bermaydi. Shuningdek, respublikamizda bu masalalar buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va boshqa mehyoriy hujjatlar talablari darajasida ilmiy jihatdan to'liq sanoat korxonalarida xarajatlar hisobi va tannarxni kalg'kulyatsiya qilishni takomillashtirish yo'llari (xususan, energiya ishlab chiqarish korxonalarini misolida) hal etilmagan. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish va mahsulotlar tannarxini o'rganishning ahamiyati bugungi kunda yanada ortmoqda.

"Hozirgi kunda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdagi muammo shundaki, buxgalteriya tizimlari korxonalarini boshqarish tizimining axborot yehtiyolarini qondirishga yordam berishi kerak, shuning uchun xarajatlarni o'lchash va guruhlash usullarini tanlashda yagona yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Korxonada ishlab chiqarishni hisobga olish tizimini shakllantirish uchun tahliliy tafsilotlar va xarajatlarni guruhlash asosida, aniq texnologik operatsiyalar ajralib turadigan xarajatlar markazlari, bevosita xarajatlar markazlari va yakuniy javobgarlik markazlari kabi obyektlar hal qiluvchi rol o'ynaydi"[4].

Xarajatlar samaradorligini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardan biri, foyda va rentabellikdir. Foydaga tahsir etuvchi omil bu tannarxdir.

Tahlili orqali xar bir xo'jalik subyektini ishlab chiqarish, ish bajarish xizmat ko'rsatish yuzasidan qilingan harajatlarni maqsadga muvofiqligi, samaradorligi va natijaviyligi baholanadi.

Xarajatlar atamasi mulkni boshqarish, ishlab chiqarish, mahsulotlarni sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va zararlar bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ular odatda pul mablag'lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanilishi shaklida bo'ladi[5].

Xarajatlar - muayyan davr oralig'ida sarflangan resurslarning pul o'lchovidagi qiymatidir.

Xarajat - hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida ka'italning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishi[6].

Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, homashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya), mehnat resurslari va boshqa

ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlarning qiymat ko'rinishini ifodasidir.

Umumiy iqtisodiy ma'noda, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tushunchalariga Sh.Shodmonov tomonidan quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Ishlab chiqarish xarajatlari - korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari. Korxonada o'z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, yahni asbob-uskuna, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xom-ashyo, yoqilg'i, har xil materiallarni, mehnat bozorida ishchi kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq holda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va b. xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi"[7].

M.Boltabayev "Tannarx, mahsulot tannarxi - korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarning pul shaklidagi ifodasi. Tovar ishlab chiqarishda tannarxning muhim elementlari - chetdan olinadigan xomashyo, asosiy materiallar, elektr-energiya resurslari chiqimlari; asosiy va qo'shimcha ish haqi; ijtimoiy sug'urta ajratmalari; amortizatsiya ajratmalari va b. sarf xarajatlari" - deb ta'rif keltiradi [8].

Mamlakatimizda amalda bo'lgan Soliq Kodeksida (2020) "...soliq to'lovchi tomonidan O'zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko'rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari (ushbu Kodeksning 333- 336-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa zararlar) xarajatlar deb e'tirof etiladi." deb ta'rif berilgan [9].

M.T.Kovalchuk o'zining dissertatsiyasida «xarajatlar (rasxodi)», «chiqimlar (zatrati)», «sarflar (izderjki)» va «tannarx (sebestoimost)» kabi tushunchalarga aniqlik kiritgan. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar, olimlarning ta'riflarini o'rganish asosida «xarajatlar» atamasi «chiqimlar (zatrati)», «sarflar (izderjki)» va «tannarx (sebestoimost)» atamalaridan kengroq tushuncha ekanligini asoslab beradi hamda har qanday xarajatlar ishlab chiqarish faoliyatini tutib turish va kelgusida rivojlanishi uchun amalga oshiriladi degan xulosaga keladi [10].

Xorijdagi ilmiy ishlarda tannarx masalasini turli jihatlarida va turli omillar bilan bog'lagan holda o'zgarish tendentsiyalarini aniqlashga doir tadqiqotlar salmoqli o'rinni egallaydi. Masalan, Dillep G.Dhavale mahsulot tannarxini qarorlar qabul qilishda o'zgaruvchan texnologiyalarga hissalari ravishda bog'liqligi asosida o'rganadi [11].

N. Abdusalomova «tannarx hisobi – rivojlana-yotgan mamlakatlarda buxgalteriya hisobining yangi tendentsiyasi» deb baholaydi [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Energiya ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni boshqarish tizimini o'rganishda moliyaviy tahlil metodini qo'llagan holda turli usullar, ya'ni taqqoslash, guruhlash, gorizontal hamda vertikal tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ta'kidlash joizki, energetika korxonalarini faoliyati samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ularning xarajatlarini boshqarishdir. Xarajatlarni boshqarish tizimida alohida o'rinni tahlil funktsiyasi egallaydi, chunki u korxonaning barcha resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashga, ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish uchun zaxiralarni aniqlashga, rejalarini tayyorlash va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumot to'lashga yordam beradi.

Bunda, korxonalar rahbarlarining muammolaridan biri xarajatlarni tahlil qilishning tegishli usulini tanlashdir. Amalda qisqartirilishi mumkin bo'lgan xarajatlarni aniqlash uchun tahlilning quyidagi asosiy turlari qo'llaniladi:

- xarajatlar tarkibini tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil;
- omil tahlili;
- xarajatlarni omilini tahlil qilish;
- ABC tahlili
- XYZ tahlillari.

Korxonalarining faoliyati energetika korxonalarini mahsulot tannarxini-xarajatlarini tashkil etuv-

chi juda keng xarajatlar nomemklaturasidan tashkil to'ganligidan dalolat beradi. Shuning uchun, model-lashtirish va tahlil qilish uchun ko'lab tahlil usullarini qo'llash qiyin. Biz ABC tahlilidan foydalangan holda xarajatlarni tartibga solishni boshlashni taklif qilamiz.

ABC usuli Pareto 20/80 qoidasi deb nomlangan statistik qonuniyatga asoslangan[13]. Xarajatlarga kelsak, ABC usulining mohiyati shundan iboratki, tahlil maqsadiga muvofiq, tasniflash xususiyati tanlanadi, so'ngra xarajatlar ushbu tasniflash xususiyatining kamayishiga qarab tartiblanadi.

Barcha xarajatlar (bir xil turdagi yoki yo'nalishdagi) qiymati bo'yicha uch guruhga bo'linadi. Ushbu guruhlarning maqsadi har bir xarajat moddasi ustidan turli darajadagi nazoratni o'rnatish uchun muhim ahamiyatga ega xarajat moddalarini muhim bo'lmaganlaridan ajratishdir. Shunga ko'ra, solishtirma og'irligiga kora harajatlarni 3 guruhga bo'lamiz:

- A guruhi – solishtirma og'irligi 10-15 % dan yuqori
- B guruhi – solishtirma og'irligi 5-10 %
- C guruhi – solishtirma og'irligi 5 % dan ast

ABC usuli faqat yaratish jarayonlariga mos keladigan xarajatlarni o'z ichiga olganligi sababli eng maqbul xarajat qiymatini olish imkonini beradi.

Korxonada ABC-tahlilni o'tkazishning birinchi bosqichi - xarajatlarni moddalari bo'yicha ro'yxatga olishdir (1 jadval).

ABC tahlilini Energiya ishlab chiqaruvchi Farg'ona IEM AJ misolida ko'rib chiqamiz.

1-jadval

“Farg’ona IEM” AJ misolida xarajatlarni moddalari bo’yica ro’yxatga olish

	Ko'rsatkichning nomi	Qiymati, mln s
1.	Energiya resurslari	24864,395
2.	Xom ashyo va materiallar	155920,423
3.	Ishchi-xodimlar xodimlarining ish haqi	15785,859
4.	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	1861,124
5.	Boshqa xarajatlari	13624,385
6.	Ijtimoiy sug'urta xarajatlari	6177,500
	Jami	218233,686

Manba: muallif ishlanmasi

So'ngra, biz 2-jadvalda barcha xarajatlar moddalarini keltirilgan xarajatlarning kamayishiga

qarab tartiblaymiz. Keyingi bosqichda tartiblaniash natijalariga ko'ra, biz har bir xarajat moddasining ulushini aniqlaymiz.

2-jadval

“Farg’ona IEM” AJ misolida xarajat moddalarini xarajatlarning kamayish tartibida tartiblash

	Ko'rsatkichning nomi	Qiymati, mln s
1.	Energiya resurslari	155 920,423
2.	Xom ashyo va Materiallar	24 864,395
3.	Ishchi-xodimlar xodimlarining ish haqi	15 785,859
4.	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	13 624,385
5.	Boshqa xarajatlari	6 177,500
6.	Ijtimoiy sug'urta xarajatlari	1 861,124
	Jami	218 233,686

Shuni ta'kidlash kerakki, jadvalda uning boshida joylashgan kalkulyatsion moddalaridan boshlab, alohida jami foiz va yig'ma foiz % hisoblab chi-

qiladi. Natijalariga ko'ra, biz har bir xarajat elementiga mos keladigan A, B yoki C guruhlarini ajratamiz.

3-jadval

"Farg'ona IEM" AJ misolida xar bir xarajat moddasining hissasini aniqlash, xarajatlar moddalari guruhlariga taqsimlanishi

	Ko'rsatkichning nomi	Qiymati, mln. s	solishtirma og'irligi, %	yig'ma foiz %	guruh
1.	Energiya resurslari	155 920,423	71.44	71.44	A
2.	Xom ashyo va materiallar	24 864,395	11.39	82.83	A
3.	Ishchi-xodimlar xodimlarining ish haqi	15 785,859	7.23	90.06	B
4.	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	13 624,385	6.24	96.3	B
5.	Boshqa xarajatlari	6 177,500	2.83	99.13	C
6.	Ijtimoiy sug'urta xarajatlari	1 861,124	0.85	100	C
	Jami	218 233,686	100		

Manba: muallif ishlanmasi.

A guruhiga maksimal xarajatlar keltiruvchi eng qimmat obyektlar kiradi, ularning ulushi 10-15 %dan ortiq. Guruh qattiq nazorat qilinishi va aniq bashorat qilinishi kerak. Bizning holatlarimizda bular *energiya resurslari: elektr, gaz, mazut,*

xomashyo va materiallar: kimyoviy reagentlar, texnil suv, kimyoviy tozalangan suv, ta'mirlashga sarflangan materiallar va boshqalardan iborat.

Oxirgi ikkita xarajat moddasi alohida e'tibor talab qiladi, chunki ular resurslardan samarasiz foydalanishni ko'rsatishi mumkin.

B guruhi - o'ziga xos og'irligi 5-10 % bo'lgan ko'rsatkichlarlar guruhi bulib, unga ishchi-xodimlar xodimlarining ish haqi va asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi kiradi. Xarajatlar tarkibida ahamiyatsiz kichik ulushi tufayli ularni tinchroq va o'rtacha sur'atda modellashtirish mumkin.

C guruhi "Farg'ona IEM" AJda eng arzon guruhdir. Bu guruhga: Boshqa xarajatlar, ijtimoiy sug'urta xarajatlari kiradi, ularning ulushi 5% dan kam. Holbuki, ushbu xarajatlar guruhi uchun metodologiya 5% dan kam bo'lishi kerak.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ABC usulini qo'llash natijasida energetika kompaniyalari rahbarlari korxonaning turli sohalarida ko'roq asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega.

Korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish sohasida xarajatlarning bunday real tasviri optimallashtirilishi kerak bo'lgan xarajatlar turlarini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Yanada samarali baho siyosatini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu bilab birga, xarajatlarni qanchalik biz aniq kal-

kulyatsiya obyektlariga olib borish, baxo narxlarning pastki chegarasini aniqlash imkonini beradi.

Haqiqiy tannarx qiymatini bilish, muayyan ish xizmatga nisbatan harakat dasturini ishlab chiqish imkonini beradi. Tahlil davomida olingan ma'lumotlarga asoslanib, xarajatlarni optimallashtirish yoki joriy davr uchun dastur ishlab chiqiladi.

So'nggi paytlarda korxonalarda tannarx kalkulyatsiyasi nafaqat an'anaviy usullari, balki no-an'anaviy usullarga ham yo'naltirmoqda

ABC metodologiyasi ma'lum bir operatsiya-ning narxini baholashga imkon beradi Ushbu usulni amalga qo'llash natijasida, oldini olish mumkin bo'lgan xarajatlarning umumiy miqdorida, xarajatlarning 30-40 foizini aniqlash mumkin, bu esa, shubhasiz, energetika kompaniyalari samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytsak, bugungi kunda ishlab chiqarish xarajatlarini samarali boshqarish va mahsulot tannarxini pasaytirish xo'jalik yurituvchi subyektlar oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, har bir xo'jalik yurituvchi subhektning faoliyat yuritishdan asosiy maqsadi foyda olish hamda uni yanada ko'paytirish va shu orqali o'zini iqtisodiy jihatdan barqarorligini tahminlash, faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishdir. Albatta, ushbu maqsadlarga erishish uchun xo'jalik yurituvchi subhektlar ishlab chiqarish xarajatlarini samarali boshqarishi va mahsulot tannarxini imkon darajasida kamaytirishi lozim bo'ladi. Shu sababli, ishlab chiqarish xarajatlari boshqarish va mahsulotlar tannarxini o'rganishning ahamiyati bugungi kunda yanada ortdi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi Matbuot xizmati. <http://minenergy.uz/uz/news/view/1298>
2. 2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash kontseptsiyasi <http://minenergy.uz/uz/lists/view/77>
3. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami © 2022 Jahon banki 1818 H Street NW, Washington DC 20433 Telefon: 202-473-1000; Internet: www.worldbank.org
4. Pardayev A. va boshqalar Boshqaruv tahlili. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005-.
5. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari 1998-2017-yillar.
6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
7. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ishlab-chiqarish-xarajatlari-uz/>.

8. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tannarx-uz/>.

9. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi <https://lex.uz/docs/4674902#4684425>

10. Учет затрат на производство и калькулирование себестоимости продукции на предприятиях нефтегазодобывающей промышленности. <https://www.dissercat.com/content/uchet-zatrat-na-proizvodstvo-i-kalkulirovanie-sebestoimosti-produktsii-na-predpriyatiyakh-ne>

11. Product Costing for Decision Making in Certain Variable-Proportion Technologies //Journal of Management Accounting Research (2007) 19 (1): 51–70. <https://doi.org/10.2308/jmar.2007.19.1.51>.

12. Abdusalomova N., 2017. "Cost Accounting and Financial Health: Analysis of Cost Reduction Policy Effect in Selected Enterprises of Metallurgy Industry in Uzbekistan," International Journal of Management Science and Business Administration, Inovatus Services Ltd, vol. 3(3), pages 33-38, March.

13. Пруцкова, С. В. Применение новых методов анализа затрат как инструмент повышения энергоэффективности энергетической компании / С.В. Пруцкова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2015. – № 23.1 (103.1). – С. 61-64. – URL: <https://moluch.ru/archive/103/23661/> (дата обращения: 21.10.2022).



БОШҚАРУВ ҲИСОБИ ТИЗИМИДА БИЗНЕС ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА УНИНГ КОРХОНА ФАОЛИЯТИДА ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Саидакбаров Хусниддин Абдусаломович -

Ўзбекистон Республикаси Президентни ҳузуридаги

Давлат бошқаруви академияси Молия-иқтисод

бўлими бошлиғи, н.ф.ф.д. (PhD)

[doi https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a30](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a30)

Аннотация. Ушбу мақолада бошқарув ҳисоби нуқтаи назаридан бошқарув тизимидаги ёндашувлар янги йўналиш сифатида функцияларини бажариши устидан назоратни ва ходимлар томонидан юқори турувчи раҳбарнинг кўрсатмаларига қатъий риоя қилишни назарда тутади, жараёнли ёндашувда бажариладиган ишнинг (функцияларнинг) бажарилиш технологиясини эмас, балки якуний натижани назорат қилиш ҳисобланади. Операцион, тактик ва стратегик бошқарув қарорларини қабул қилиш мақсадида корхона раҳбарияти талаблари асосида иқтисодий фаолият жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари кўриб чиқилган. Амалий фаолият ва илмий йўналиш соҳаси сифатида бизнес-жараённинг истиқболлари аниқланган.

Калит сўзлар: бошқарув ҳисоби, бизнес, таҳлил, бизнес-таҳлил, кўникма, тадбиркорлик фаолияти, бизнес-жараён, бошқарув қарорларини асослаш, Бизнес-таҳлил халқаро институти назорати.

ОРГАНИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА И ЕЕ МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ

Саидакбаров Хусниддин Абдусаломович -

Начальник отдел финансов и экономики

Академии государственного управления при

Президенте Республики Узбекистан, д.ф.п.н PhD

Аннотация. В данной статье в качестве нового направления подходов в системе управления предполагается контроль за выполнением функций и неукоснительное выполнение работниками указаний вышестоящего руководителя, в процессном подходе это не технология выполнения работы (функции), но контроль конечного результата. Для принятия оперативных, тактических и стратегических управленческих решений учитывались особенности процессов хозяйственной деятельности исходя из требований руководства предприятия. Определены перспективы бизнес-процесса как сферы практической деятельности и научного направления.

Ключевые слова: бизнес, анализ, бизнес-анализ, навыки, предпринимательская деятельность, бизнес-процесс, обоснование управленческих решений, контроль Международного института бизнес-анализа.

UNDERSTANDING BUSINESS PROCESSES, ITS PLACE AND SIGNIFICANCE IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE

Saidakbarov Khusniddin Abdusalomovich -

Head of the Department of Finance and

Economics of the Academy of Public Administration

under the President of the Republic of Uzbekistan, PhD

Abstract. In this article, as a new direction of approaches in the management system, it is supposed to control the performance of functions and strict compliance with the instructions of a higher manager by employees; in the process approach, this is not a technology for performing work (functions), but control of the final result. To make operational, tactical and strategic management decisions, the features of business processes were taken into account based on the requirements of the enterprise management. The prospects of the business process as a sphere of practical activity and scientific direction are determined.

Keywords: business, analysis, business analysis, skills, entrepreneurial activity, business process, substantiation of managerial decisions, control of the International Institute of Business Analysis.